

X. Sulaymonova nomidagi
Respublikasi sud ekspertiza
markazi direktorining
2023-yil 2-fevraldagi
7-um-son buyrug'iga
1-ILOVA

X. Sulaymonova nomidagi Respublikasi sud ekspertiza markazi hamda hududiy bo'limlarda favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish hamda harakat qilish yuzasidan tayyorgarligi bo'yicha 2023-yil uchun

TASHKILIY KO'RSATMALAR

Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish, Марказ ва унинг ҳудудий бўлимларида fuqaro muhofazasi tuzilmalari kuch va vositalarining doimiy shayligini ta'minlash, rahbariyat va xodimlarni favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga o'rgatish bo'yicha 2023-yilning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

favqulodda vaziyatlarni oldini olish, ularning oqibatlarini bartaraf etish, ishchi-xizmatchilarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish;

yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar xavfini kamaytirish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Markaz hamda hududiy bo'limlar tomonidan ishchi-xizmatchilar xayotiga va salomatligiga xavf soluvchi avariya holatlarini oldini olish bo'yicha choralar ko'rilishini ta'minlash;

fuqaro muhofazasi tuzilmalarining kuch va vositalarini yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga tayyorlash;

fuqaro muhofazasi tuzilmalarini zamonaviy talablarga javob beradigan qutqaruv asbob-uskunalar va himoya vositalari bilan ta'minlash;

zaruriyat yuzaga kelgan hollarda favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi borasidagi huquqiy-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish;

yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar to'g'risida targ'ibot-tashviqot tadbirlarini kengaytirish;

Markaz tomonidan 2023-yil uchun asosiy tadbirlar rejasida belgilangan vazifalar yuzasidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi ma'lumotlar 2023-yilning 1-iyuliga qadar hamda 2024-yil 10-yanvariga qadar Adliya vazirligiga taqdim etiladi.